

единогласно не был воспринят ни представителями правоохранительных органов, ни представителями отраслей наук уголовно-правового комплекса. Учитывая это Кабинет Министров Республики Узбекистан Распоряжением № 159 от 20 мая 1993 года возложил на Министерство юстиции обязанность по подготовке проекта Уголовного кодекса, работа над которым была завершена в декабре 1993 года и законопроект был направлен в Верховный Совет. На основании вышеуказанного распоряжения были сформированы рабочие группы по разработке кодифицированного законодательства по всем отраслям права, в том числе и уголовного.

Сегодня мало кто знает состав рабочей группы по разработке проекта Уголовного кодекса. В нее входили:

Джалилов Мамур Джалилович – Председатель рабочей группы, заместитель

Министра юстиции Республики Узбекистан, государственный советник юстиции второго класса;

члены рабочей группы:

Каракетов Юлдаш Мустафаевич – старший научный сотрудник Ташкентского государственного юридического института, кандидат юридических наук, доцент;

Рустамбаев Мирзоюсуп Хакимович – заведующий кафедрой уголовного права Ташкентского государственного юридического института, доктор юридических наук, доцент;

Усманиев Мамажон – доцент кафедры уголовного права Ташкентского государственного юридического института, кандидат юридических наук;

Якубов Александр Санджарович – начальник кафедры уголовного права Высшей школы милиции МВД Республики Узбекистан, кандидат юридических наук, доцент.



KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING MAHALLADAGI JINOYATLARNI BARVAQT OLDINI OLIISH MEXANIZMIDAGI O'RNI



ADILKARIYEV
Xojimurod To'xtamurodovich
O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar doktori, professor



UMIRZAKOV
Begzod Ataboyevich
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Kriminologiya kafedrası boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada mahalla darajasida sodir etilgan jinoyatni kriminologik prognozlash vositasida baholash va uning barvaqt oldini olishning nazariy hamda amaliy masalalari tahlil etiladi. Ilmiy prognozlash asosida mazkur toifa jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish oid taklif va tavsiya ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kriminologik prognozlash, mahallalardagi jinoyatchilikning oldini olish, prognozlashning samaradorligi, prognozni baholash.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические вопросы криминологического прогнозирования преступности в махаллях и оценки роли данного инструментария в раннем предупреждении преступлений. А также выдвигаются предложения и рекомендации по выработке мер, направленных на борьбу с преступностью.

Ключевые слова: криминологическое прогнозирование, предупреждение преступности в махаллях, эффективность прогнозирования, прогнозный мониторинг.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical issues of criminological forecasting of crime in mahallas and assesses the role of this instrument in the early prevention of crime. The article also puts forward proposals and recommendations for developing measures aimed at combating crime.

Keywords: criminological forecasting, crime prevention in mahallas, effectiveness of forecasting, predictive monitoring.

Hozirgi shiddatli taraqqiyot sharoitida jinoyatchilikning shakl va ko'lami tobora murakkablashib borayotgani uning oldini olishda yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. Jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurashda faqat sodir etilgan holatlarga nisbatan munosabat bildirish emas, balki ularni barvaqt aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar vaziyatdagi o'zgarishlarning kutilayotgan xususiyatini, prognoz qilingan hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli yoki mumkin emasligini aniqlashda sifatli ilmiy tahlillarning rolini alohida ta'kidlaydilar. Masalan, ma'lum bir turdagi jinoyatchilikning ko'payishi, boshqa bir turdagi jinoyatchilik darajasining pasayishi yoki kamayishi kabi savollarga yechim prognoz yordamida topilishi mumkin [1].

Kriminologik prognozlash ana shu maqsadga xizmat qiluvchi asosiy ilmiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. U jinoyatchilikning kelgusidagi holatini, tendensiyalarini va ehtimoliy xavf omillarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Jinoyatchilikni diagnostika qilish va prognozlashdan foydalangan holda, huquqni muhofaza qilish organlari mavjud muammolarni, shuningdek, jinoyatchilik va ayrim jinoyat turlari o'sishining mumkin bo'lgan tendensiyalari va boshqa xususiyatlarini aniqlash, shu asosda jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish choralari ishlab chiqish mumkin [2].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, respublika miqyosida hozirgi kunda 9 008 ta mahalla mavjud bo'lib, 2025-yilda 4 034 ta mahalla (44,8 foiz) "yashil", 663 ta (7,4 foiz) mahalla "qizil" va 4 311 ta (47,9 foiz) mahalla "sariq" toifali bo'lib, 5 865 ta mahallada jinoyat sodir etilgan [3].

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, joylarda, xususan, mahalla darajasida jinoyatlarning oldini olish ishlari ko'pinchalik hollarda shoshma-shosharlik bilan, yuzaki amalga oshirilib, mavjud ma'lumotlar yetarli darajada tahlil qilinmayapti va qaror qabul qilish jarayonida to'liq e'tibor qaratilmayapti. Bu esa profilaktika ishlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buning uchun "kriminologik prognoz"ning mohiyati, maqsadi va vazifalarini oydinlashtirish, tadqiq etilayotgan mavzuning ilmiy apparati va kategoriyalarini aniqlab olish lozim. *Kriminologik prognozlash* – jinoyatchilikning kelgusidagi holati, dinamikasi, tuzilishi hamda unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda oldindan baholash jarayoni [4].

Kriminologik prognozlashning asosiy vazifalari va ularning mazmuni quyidagilardan iborat [5]:

Birinchisi, jinoyatchilik tendensiyalarini aniqlash. Bu vazifa jinoyatchilikning o'sishi yoki kamayishi, qaysi turlari o'sayotgani, qaysi hududlarda faollashayotgani kabi holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Ya'ni, bu orqali jinoyatchilikning yo'nalishi va dinamikasi aniqlanadi. Masalan, muayyan hududda o'g'riliklar ortib borayotgan bo'lsa, bu kelgusida ushbu jinoyat turi yana ko'payishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ikkinchisi, xavfli guruhlar va hududlarni belgilash. Ushbu vazifa jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar (masalan, ilgari sudlanganlar, ishsizlar), oilalar (nizoli, ijtimoiy muammoli),

hududlar (jinoyat o'choqlari)ni aniqlashni nazarda tutadi. U orqali profilaktika ishlari umumiy emas, manzilli tashkil etilishi ta'minlanadi. Xususan, mahallada jinoyatlar ko'pligi uni yuqori xavfli hudud, "qizil mahalla" sifatida belgilashga asos bo'ladi.

Uchinchisi, profilaktika choralari rejalashtirish. Bu vazifa aniqlangan xavflar asosida yakka tartibda (individual), maxsus (guruhli), umumiy, viktinologik profilaktika tadbirlarini rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, "hammaga bir xil chora" emas, balki har bir holatga mos differensial choralar ishlab chiqiladi. Masalan, yuqori xavf – yakka tartibdagi (individual), o'rta xavf – maxsus (guruhli) va kam xavf – umumiy targ'ibot profilaktik chora-tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga asos bo'ladi.

To'rtinchi, boshqaruv qarorlarini asoslash. Bu vazifa qabul qilinayotgan qarorlarni taxmin yoki subyektiv fikr asosida emas, balki ma'lumot va tahlil asosida qabul qilishni ta'minlaydi. Kriminologik prognozlash boshqaruvni ilmiy darajaga olib chiqadi. Ma'lumotlar asosida muayyan bir ko'cha yoki obyektga videokuzatuv vositalari o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Shunday qilib, kriminologik prognozlash jinoyatchilikni nafaqat tahlil qilish, balki uni oldindan aniqlash va boshqarish imkonini beruvchi muhim ilmiy va amaliy vosita hisoblanadi. Kriminologik prognozlash statistik tahlil, modellashtirish, ekspert baholash va individual prognozlash kabi usullar orqali amalga oshiriladi [5].

Statistik tahlil jinoyatchilik bo'yicha yig'ilgan raqamli ma'lumotlarni o'rganish orqali uning dinamikasi, tuzilishi va tendensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Bu usul orqali jinoyatlar sonining o'sishi yoki kamayishi, muayyan jinoyat turlarining ulushi, hududlar kesimida taqsimoti aniqlanadi.

Modellashtirish – jinoyatchilikning ehtimoliy rivojlanishini turli ssenariylar asosida tasvirlash usuli. Ushbu usul: "agar – unda" (what-if) kabi algoritmli tahlillarga, turli omillarning ta'sirini baholashga, prognoz natijalarini ko'rishga imkon beradi.

Ekspert baholash – sohaning tajribali mutaxassislar fikrlari asosida prognoz qilish usuli. U vaziyatni baholashda ma'lumotlar yetarli bo'lmagan holatda, murakkab vaziyatlarda, yashirin (latent) jinoyatchilikni baholashda qo'llaniladi.

Individual prognozlash – alohida shaxsning jinoyat sodir etish ehtimolini baholashga qaratilgan usul. Unda shaxsning ilgari xulqi, sudlanganlik holati, ijtimoiy muhiti, turmush sharoiti hisobga olinadi.

Shu tariqa, kriminologik prognozlashning mazkur usullari jinoyatchilikni har tomonlama tahlil qilish va uni oqilona boshqarish imkonini beradi. Muhimi shundaki, jinoyatchilikni prognozlash jinoyat sodir etilgandan keyin chora ko'rish emas, balki unga imkon beruvchi omillarni bartaraf etgan holda barvaqt profilaktika qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslardan kelib chiqqan holda mahalla jinoyatchiligi holatini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar saqlanib qolmoqda.

Shunday qilib, kriminologik prognozlash asosida mahallada jinoyatchilikning erta oldini olish mexanizmi keng ma'lumotlar bazasiga, shuningdek, "xavfsiz mahalla" modeli doirasida mahalla faollarining faol ishtirokiga asoslangan mahallada jinoyatchilik holatining rivojlanish xavflarini, o'zgaruvchan huquqbuzarlik tendensiyalarini prognoz qilish, aniqlash, o'rganish va tahlil qilish bo'yicha keng qamrovli, ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimidir.

Tahlillar natijasida jinoyatlar hududlar kesimida noteng taqsimlangani, ayrim mahallalarda kriminogen vaziyat yuqori darajada murakkab holda saqlanib qolayotgani kuzatilmoqda. Ayni vaqtda, ayrim hududlarda profilaktika ishlarining samarali tashkil etilgani natijasida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan holatlar ham mavjud. Ilmiy tahlillar bunday holat mahalla darajasida jinoyatchilikni oldini olish ishlarida yondashuvlar o'rtasida farq mavjudligini ko'rsatadi.

Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan Chilonzor tumani aholisi o'rtasida "*Jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini o'rganish va ularning barvaqt oldini olish*" mavzusida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari ko'ra, "*Mahallangizda sodir bo'lgan jinoyatlarning sabablari qaysi omillar bilan bog'liq?*" degan savolga respondentlarning 159 nafari – "ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchilik tufayli (ishsizlik, uy-joyga ega emasligi, maoshning pastligi, kreditga egaligi)", 120 nafari – "ijtimoiy-madaniy muammolar tufayli (oilaviy mojarolar, kam

ta'minlanganligi, ota-onasining yo'qligi, hech qayerda o'qimasligi yoki ishlamasligi)", 46 nafari – "ijtimoiy-ruhiy muammosi tufayli (ruhiy kasalligi, bedavo kasalga duchor bo'lgani, oilasidagilarning kasalligi)" degan javoblarni belgilashgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlar jinoyatlarning asosiy sabablarini, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'laydi. Xususan, ishsizlik, daromadning pastligi, uy-joy masalalari va moliyaviy majburiyatlar aholini jinoyat sodir etishga undaydigan muhim omillar sifatida baholanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy muammolar ham sezilarli ta'sirga ega ekani qayd etilgan. Oilaviy mojarolar, ijtimoiy yetishmovchilik, ta'lim va mehnat faoliyatidan chetda qolish holatlari shaxsning ijtimoiy muhitdan uzilishiga olib kelib, jinoyatchilikka moyillikni oshirishi mumkin. Ayrim holatlarda ijtimoiy-ruhiy muammolar ham jinoyatlarning sababi sifatida ko'rsatilgan. Bu esa ruhiy salomatlik, stress va shaxsiy muammolarning ham ahamiyatli omil ekanligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jinoyatchilik sabablari ko'p qirrali ekanligini, ammo asosiy e'tiborni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, oilaviy muhitni mustahkamlash va aholining ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashga qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib o'rganishlar natijasida jinoyatlarning sodir etilishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkinligi aniqlandi:

- 1) maishiy nizolar va shaxsiy kelishmovchiliklar;
- 2) spirtli ichimlik ta'sirida sodir etilgan holatlar;
- 3) ilgari sudlangan shaxslar ishtirokidagi holatlar;
- 4) mol-mulkning qarovsiz qolishi va nazoratning yetishmasligi;
- 5) profilaktika ishlarining yetarli darajada manzilli tashkil etilmaganligi va hokazo.

Shu bilan birga, jinoyatlarning muayyan hududlarda to'planishi kriminogen vaziyatning tizimli xususiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Tahlil natijalari quyidagi tizimli muammolar mavjudligini namoyon etmoqda:

- 1) ma'lumotlar yig'ilishiga qaramasdan, ularning chuqur tahlil qilinmasligi;
- 2) xavf omillarining barvaqt aniqlanmasligi;

3) profilaktika choralarining umumiy tusda amalga oshirilishi;

4) turli subyektlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv mexanizmining yetarli emasligi;

5) mahalla darajasida qaror qabul qilish vakolatlarining cheklanganligi. Ushbu holatlar profilaktika tizimi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida mahalla darajasida kriminologik prognozlashga asoslangan boshqaruv modelini yaratish lozim. Ushbu modelning mohiyati mahalla darajasida jinoyatchilikning oldini olishni ma'lumotlar tahlili va prognozlash asosida tashkil etishdan iborat. Bunda "mahalla yettiligi" ijrochi emas, balki ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qiluvchi lokal boshqaruv subyekti sifatida faoliyat yuritadi.

Model quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich – ma'lumot yig'ish (aholining ijtimoiy holati, xavf guruhlari va kriminogen hududlar to'g'risida ma'lumotlar shakllantiriladi).

2-bosqich – tahlil va prognozlash (ma'lumotlar asosida jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar va hududlar aniqlanadi).

3-bosqich – manzilli choralar (aniqlangan xavf darajasiga qarab profilaktika choralari rejalashtiriladi).

4-bosqich – monitoring (amalga oshirilgan choralarning samaradorligi doimiy baholanadi).

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosa-larga kelish mumkin:

birinchidan, mavjud tizim va mexanizmlar saqlanib qolgan taqdirda jinoyatchilikning takrorlanish ehtimoli yuqori bo'lib qoladi;

ikkinchidan, profilaktika ishlari manzilli tashkil etilmagan holatlarda ularning samaradorligi pasayadi;

uchinchidan, kriminogen hududlarda vaziyat barqarorlashmaydi.

Kriminologik prognozlashga asoslangan yondashuv joriy etilgan taqdirda: jinoyatlarning barvaqt oldini olish imkoniyati oshadi; profilaktika ishlari aniq maqsadga yo'naltiriladi; mahalla darajasida xavfsiz muhit shakllanadi. Shu tarzda kriminologik prognozlash jinoyatchilikning oldini olishda muhim ilmiy va amaliy instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu yondashuv jinoyatchilikka qarshi kurashni reaktiv usuldan proaktiv boshqaruvga o'tkazish imkonini beradi hamda mahalla darajasida profilaktika ishlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ko'rib chiqilayotgan *mexanizmning asosiy elementlari* quyidagilar:

1. Tashkiliy choralar – ma'lum bir mahalla biriktirilgan rangli zonalar yordamida mahallalarni jinoyatchilik darajasi bo'yicha saralash ("qizil" – yuqori jinoyatchilik darajasi, "sariq" – o'rtacha jinoyatchilik darajasi, "yashil" – past jinoyatchilik darajasi). Hududlar jinoyatchilik darajasi bo'yicha tasniflanadi; jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan "qizil" mahallalarga ustuvorlik beriladi va doimiy monitoring olib boriladi, bu yerda profilaktika va tergov choralari kuchaytiriladi.

2. Kriminologik prognozlash va tahlil choralari – jinoyatchilikni tahlil qilish uchun geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanish; profilaktik kuzatuv ro'yxatlaridagi shaxslarning elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish; ijtimoiy kelib chiqish hodisalarini (oilaviy nizolar, ishsizlik) tahlil qilish asosida kelajakdagi jinoyatlarni bashorat qilish.

Fikrimizcha, mahallalarda jinoyatchilikning erta oldini olishda prognozlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– monitoring, ya'ni mahalladagi ijtimoiy vaziyat va jinoyatchilik holati, nizolarning mavjudligi va jinoyatchilikka moyil shaxslar (individual profilaktika) haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda o'rganish, to'plash va tahlil qilish;

– tizimli kriminologik prognozlash, ya'ni "yuqori xavfli zonalar"ni aniqlash va mahallada jinoyatchilik holatining rivojlanishini prognoz qilish uchun ma'lumotlarni qidirish, umumlashtirish va tahlil qilish;

– profilaktik choralarni, ya'ni huquqiy yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilalarga psixologik yordam va yoshlar uchun huquqiy ta'lim tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan manbalar

1. Колосова И. М., Пашин В. М., Болдырев У. К. Прогнозирование оперативной обстановки в территориальных органах МВД России: типология прогнозов, этапы и практическое значение // Пролог: журнал о праве. – 2023. – № 3.
2. Адилкариев Х.Т., Тультеев И.Т. Теоретико-методологические аспекты научной диагностики и прогнозирования преступности // "Kriminologiya" xalqaro ilmiy-amaliy jurnal. – 2025. – № 2. – С. 122.
3. Жиноятчилик тенденциялари ва омиллари давлат ҳисоботлари (2025 йилнинг 12 ойи бўйича): Ахборот-таҳлилий ҳужжат. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти, 2026.
4. Siegel L.J. Criminology: Theories, Patterns, and Typologies. – 2021.; Криминология: дарслик. – Т.: ИИБ Академияси, 2023.
5. Абдуқодиров А.А. Криминологик прогнозлаш асослари. – Т., 2020.; Siegel L.J. Criminology. – 2021.

